

**Urganch davlat pedagogika instituti Korrupsiyaga qarshi kurash
“Komplayens-nazorat” tizimini boshqarish bo‘limi tomonidan 2025-yilning
o‘tgan 1-yarim yilligida amalga oshirilgan ishlar bo‘yicha bo‘lim boshlig‘i
Djumaniyazov Adilbek Xudayberganovichning**

H I S O B O T I

Assalomu alaykum hurmatli vatandoshlar!

Bugungi brifing 2025-yilning o‘tgan 6 oyi davomida Urganch davlat pedagogika instituti tomonidan korrupsiyaviy xavf-xatarlarni barvaqt oldini olish yo‘nalishi bo‘yicha amalga oshirilgan profilaktik-ogohlantiruv tadbirlari to‘g‘risidagi hisobotni jamoatchilikning e‘tiboriga yetkazish maqsadida tashkil etildi.

Joriy yilning o‘tgan davri mobaynida Urganch davlat pedagogika institutida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni barvaqt oldini olish yo‘nalishida bo‘lim tomonidan muayyan ishlar amalga oshirildi.

Jumladan, korrupsiyaviy xavf-xatarlarni barvaqt oldini olish, manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish borasida olib borilayotgan targ‘ibot ishlarini samaradorligini yanada oshirish, targ‘ibot va tashviqot tadbirlarini tashkil etish orqali yoshlarda korrupsiyaga nisbatan toqatsizlik munosabatini shakllantirish yuzasidan qo‘shimcha chora-tadbirlarni belgilab amalga oshirish maqsadida institutning korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘limi tomonidan joriy yilda **2 ta** nizom, **2 ta** buyruq loyihasi va **6 ta** chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqildi va ijroga yo‘naltirildi.

Mazkur ishlab chiqilgan ichki hujjatlar asosida institutda mehnat faoliyatini olib borayotgan professor-o‘qituvchilar, barcha toifadagi ishchi-xodimlar va talaba-yoshlar o‘rtasida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni barvaqt oldini olish yuzasidan muntazam ravishda targ‘ibot tadbirlari o‘tkazildi.

Ishga yangi qabul qilingan xodimlarni dastlabki ish kunidan **“Halollik vaksinasi”** bilan emlash tadbirlarini amalga oshirish ishlariga bo‘lim tomonidan alohida e‘tibor qaratildi.

Shu o‘rinda shuni ta’kidlab o‘tish joizki, ushbu tadbirlar amalga oshirish jarayonida birgina joriy yilning o‘zida xizmat intizomi va qonunchilikni buzmaslik, o‘rnatilgan odob-axloq qoidalariga to‘liq rioya etish hamda manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymaslik borasida jami **170** nafar professor-o‘qituvchi va ishchi-xodimlar bilan yakka tartibdagi profilaktik suhbatlar tashkil etilib, o‘tkazildi.

Yakka tartibdagi profilaktik suhbatlar joriy yilning yanvar oyida **16 nafar**, fevral oyida **27 nafar**, mart oyida **19 nafar**, aprel oyida **10 nafar**, may oyida **2 nafar** va iyun oyida **96 nafar** professor-o‘qituvchilar va ishchi-xodimlar o‘rtasida tashkil etildi.

Bo‘lim tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Qonunlari va qonun osti boshqa normativ-huquqiy hujjatlarni ijrosini ta’minlash bo‘yicha olib borilayotgan ishlarning ahvolini o‘rganish hamda yo‘l qo‘yilayotgan xato va kamchiliklarni o‘z

vaqtida bartaraf etilishini ta'minlash hamda ish samaradorligini oshirish bo'yicha sezilarli ishlar amalga oshirildi.

Jumladan, joriy yilning **yanvar oyida** talabalarining talabalar turar joyi va ijara xonadonlaridagi yashash sharoitlari hamda ularni bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo'yicha olib borilayotgan ishlar, **fevral oyida** O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonuni talablariga asosan tashkil etilgan "Xaridlar komissiyasi"ning ish faoliyati, **aprel oyida** O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-yanvardagi 59-son qarori bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim muassasalari talabalariga stipendiyalar tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida"gi Nizom hamda **iyun oyida** Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 2-dekabrda 451 va 452-sonli buyruqlari talablari asosida olib borilayotgan ishlarning ahvoli o'rganilib, aniqlangan xato va kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha institut rekoriga axborot kiritish orqali mazkur yo'nalishlardagi ishlarni yaxshilash va ish samaradorligini oshirish bo'yicha zarur chora-tadbirlar belgilanishi ta'minlandi.

Xizmat tekshiruvi o'tkazish amaliyoti qonunchilik va xizmat intizomini mustahkamlash maqsadida o'tkaziladigan profilaktik-ogohlantiruv tadbirlari ichida o'zining eng ta'sirchanligi va samaradorligi bilan alohida o'rin egallaydi.

Shuni inobatga olgan holda bo'lim tomonidan professor-o'qituvchilar va ishchi-xodimlarning xizmat intizomini buzish bilan bog'liq xatti-harakatlariga nisbatan xizmat tekshiruvi o'tkazish jarayonlari huquqiy-normativ hujjatlarda o'rnatilgan tartib asosida amalga oshirilmoqda.

Birgina joriy yilning o'zida xizmat intizomini va odob-axloq qoidalarini buzgan **7 nafar** professor-o'qituvchi va ishchi-xodimlarga nisbatan **2 ta** xizmat tekshiruvi o'tkazilib, ularning xatti-harakatlariga huquqiy baho berildi va xizmat intizomi va qonunchilikni mustahkamlash bo'yicha tegishli zarur chora-tadbirlar belgilandi.

Shuningdek, joriy yilning iyun oyida talabalar tomonidan institut rektoriga telegramm bitt orqali yo'llangan murojaatlar yuzasidan o'tkazilgan o'rganishlar natijasiga ko'ra, **2 nafar** xizmat intizomini buzgan xodimga nisbatan to'plangan hujjatlar tegishli ta'sir choralari qo'llash uchun "Odob-axloq komissiyasi" ga taqdim etildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi "Aholi va davlat xizmatchilarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi bilimlarini uzluksiz oshirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-228-son qarori ijrosi ta'minlash maqsadida joriy yilning may va iyun oylarida jami **1200 nafar** 1 va 2-bosqich talaba-yoshlar ro'yxat asosida "Korrupsiyaga qarshi kurashish virtual akademiyasi" elektron platformasi orqali onlayn tartibda o'qitildi.

Shuningdek, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining "Korrupsiyaga qarshi ta'lim va yoshlarning imkoniyatlarini kengaytirish global resursi (GRACE) dasturi doirasida o'qitish amaliyotini joriy etishni tashkil etish to'g'risida" 2024-yil 24-sentabrda 355-son burug'i talablari asosida bo'lim tomonidan O'quv-uslubiy boshqarmasi bilan hamkorlikda joriy yilda **6 ta** seminar va **80 ta** o'quv mashg'ulotlari o'tkazildi. Ushbu jarayonlarga jami **2460 nafar** talaba-yoshlarning ishtiroki ta'minlandi.

Joriy yilning o'tgan davri mobaynida bo'lim tomonidan institut talaba-

yoshlari oʻrtasida **238 marotaba** korrupsiyaga qarshi kurashish yoʻnalishi boʻyicha huquqiy mavzularda targʻibot tadbirlari oʻtkazildi.

Targʻibot tadbirlarining **80 tasi** maʼruza, **90 tasi** davra suhbat, **30 tasi** seminar koʻrinishida hamda **38 tasi** uyma-uy borib oʻtkazildi, ushbu tadbirlarda **4112 nafar** talaba-yoshlarning ishtiroki taʼminlandi.

Talaba-yoshlarda korrupsiyaga nisbatan toqatsizlik munosabatini shakllantirish maqsadida joriy yilning **19-may kuni** institut rektorining 2025-yil 15-maydagi 162-IB-sonli buyrugʻiga asosan talaba-yoshlar oʻrtasida **“Eng yaxshi esselar”** tanlovi oʻtkazildi.

Institutdagi mavjud korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va bartaraf etish hamda isteʼmolchilarning taʼlim xizmatlari sifatidan qanoatlanligini baholash maqsadida joriy yilning **28-martdan 12-aprel kuniga** qadar talaba-yoshlar oʻrtasida onlayn tartibda anonim soʻrovnoma tashkil etildi.

Ushbu soʻrovnoma tadbirida jami **2319 nafar** talaba-yoshlarning ishtiroki taʼminlandi. Soʻrovnoma natijalari boʻyicha ishtirokchilarning fikr va mulohazalari tahlil etilib, boʻlim tomonidan institutdagi qoldiq korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish hamda taʼlim sifatini yaxshilash boʻyicha zarur chora-tadbirlar belgilandi va tegishli sohaviy boʻlimlarga topshiriqlar berildi.

#Stop korrupsiya xeshtegi ostida chellendj tadbirlarini oʻtkazishi aholi oʻrtasida korrupsiyaga qarshi toqatsizlik munosabatini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etishini inobatga olib, boʻlim tomonidan ushbu yoʻnalishda ham qator ijobiy natijalarga erishildi.

Jumladan, joriy yilning **19-mart** hamda **5, 6, 7 va 8-may** kunlari **#Stop korrupsiya xeshtegi** ostida oʻtkazilgan chellendj tadbirida **250 nafardan** ortiq professor-oʻqituvchilar, **3479 nafar** talaba-yoshlar hamda **161 nafar** ishchi-xodimlarning faol ishtiroki taʼminlandi.

Imtihonlar, kurs ishlari va bitiruv malakaviy ishlarni baholashda hamda doktorantura va mustaqil izlanuvchanlikka qabul jarayonlarini adolatlilik, qonuniylik, shaffoflik va ochiqlik prinsiplari asosida oʻtkazilishi taʼminlash ishlari boʻlim tomonidan alohida nazorat ostiga olingan.

Jumladan, oʻtgan davr mobaynida talaba-yoshlardan olinadigan yakuniy nazorat imtihon va yakuniy davlat attestatsiyasi jarayonlari shu jumladan, kurs ishlari va bitiruv malakaviy ishlarni baholash hamda doktorantura va mustaqil izlanuvchanlikka qabul jarayonlari belgilangan tartibda tashkil etilishi hamda ushbu barcha jarayonlarni videokuzatuv moslamalari oʻrnatilgan dars xonalarida olib borilishi va onlayn kuzatuv orqali namoyish etilishi taʼminlandi.

Boʻlim tomonidan institutning rasmiy veb-saytida “Korrupsiyaga qarshi kurash” rubrikasi (sarlavhasi)ni ochish va sifatli yuritish ishlari ham samarali joriy etildi.

Institutning rasmiy veb-saytida “Korrupsiyaga qarshi kurash” rubrika (sarlavha)sidan foydalanuvchilar uchun yanada qulayliklarni yaratish maqsadida joriy yilning **20-mart kuni** qoʻshimcha ravishda Korrupsiyaga qarshi kurash ichki nazorat tizimini boshqarish sahifasi rasmiylashtirildi va institut veb-saytining birinchi sahifasiga joylashtirildi.

Mazkur sahifadagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish” rubrika (sarlavha)da sohaga oid bo‘lgan barcha ma’lumotlar **7 ta** asosiy sahifa orqali muntazam ravishda jamoatchilikning e’tiboriga yetkazib borilishi yo‘lga qo‘yildi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish hamda manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish yo‘nalishlari bo‘yicha ega bo‘lgan bilimlarni oshirish va kasbiy mahoratni muntazam ravishda rivojlantirib borish bo‘lim xodimlarining asosiy maqsadlaridan biri bo‘lib hisoblanadi.

2025-yilning o‘tgan davri mobaynida O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi, Oliy va o‘rta ta’lim vazirligi huzuridagi bosh ilmiy-metodik markaz (BIMM), O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi akademiyasi, Oliy ta’lim tizimi kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti hamda O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Moliya organlari hamda budjet tashkilotlarining moliya-hisob bo‘linmalari xodimlarini tayyorlash va qayta tayyorlash o‘quv markazi tomonidan tashkil etilgan **8 ta** masofaviy kurslarda bo‘lim xodimlari ishtiroki etishdi va tegishli sertifikatlariga ega bo‘lishdi.

Bo‘lim tomonidan “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni ijrosini ta’minlash borasidagi ishlar ham belgilangan reja asosida tizimli ravishda amalga oshirilmoqda.

Jumladan, joriy yilda **71 nafar** ishga yangi qabul qilingan nomzodlar, **36 nafar** boshqa ishga o‘tkazilgan va **43 nafar** boshqaruv xodimlari tomonidan belgilangan shakldagi to‘ldirilgan “Ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi deklaratsiya”larda oshkor etilgan ma’lumotlar bo‘lim tomonidan o‘rganilib, “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi Qonun talablari asosida ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish bo‘yicha choralarining yetarililigi va to‘g‘riligini ta’minlash haqida xulosa qabul qilinishini ta’minlash uchun “Odob-axloq komissiyasi”ga asosli **16 marotaba** takliflar kiritildi.

“Odob-axloq komissiyasi” tomonidan qabul qilingan xulosa asosida manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish yuzasidan choralar ko‘rish to‘g‘risida Xodimlar bo‘limiga **1 ta** va “Xarid komissiyasi”ga **3 ta** takliflar kiritildi, **23 nafar** professor-o‘qituvchi va ishchi-xodimlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar Urganch davlat pedagogika institutida manfaatlar to‘qnashuvini hisobga olish reestriga kiritildi.

2025-yilning o‘tgan davri mobaynida bo‘lim faoliyati bilan bog‘liq vazirlik va boshqa davlat tashkilotlaridan kelgan **71 ta** topshiriq va ko‘rsatmalarning **57 tasini** ijrosi o‘z vaqtida to‘liq ta’minlandi, qolgan **14 tasini** o‘z ijro muddatida bajarilishi rejalashtirilgan.

Hisobot davri mobaynida institut faoliyatiga doir **500 tadan ortiq** buyruqlarni qabul qilish jarayonida bevosita ishtirok etildi. Shularning, **430 tasi** bilan kelishildi, **25 tasi** bilan ilovadagi hujjatlar to‘liq bo‘lmaganligi sababli qisman kelishildi hamda **44 tasi** belgilangan talablar asosida ishlab chiqilmaganligi sababli rad etildi va o‘rnatilgan normativ-hujjatlarga mos ravishda qabul qilinishi ta’minlandi.

Institutdagi “Xarid komissiyasi”, “Odob-axloq komissiyasi” va “Urganch davlat pedagogika institutining ijara huquqi asosida yashayotgan talabalarga oylik ijara to‘lovining bir qismini O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti hisobidan qoplab berish bo‘yicha talabgorlarni tanlab olish komissiyasi” boshqa komissiyalar

hamda ishchi guruhlar faoliyatida bevosita ishtirok etib, qabul qilinayotgan qarorlarning qonuniyligi ta'minlandi va korrupsiyaviy xavf-xatarlarni kelib chiqishining barvaqt oldini olish choralari ko'rildi.

2024/2025-o'quv yili mobaynida Korrupsiyaga qarshi kurashish yo'nalishida amalga oshirilgan ishlar institut Matbuot bo'limi tomonidan institutning rasmiy veb-saytlari orqali muntazam ravishda yoritib borilmoqda.

Bo'lim tomonidan amalga oshirilgan ishlar va ko'rilgan chora-tadbirlar natijasida 2024 va 2025-yilning o'tgan davri mobaynida institutda professor-o'qituvchilari, ishchi-xodimlari va talaba-yoshlari bilan bog'liq korrupsiyaviy turdagi jinoyat va huquqbuzarliklar sodir etilishiga yo'l qo'yilmadi.

Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasi tomonidan 2025-yilning o'tgan 6 oyi davomida amalga oshirilgan ishlar 1 iyul kuni institut kengashida muhokama qilinib, yo'nalishdagi olib borilayotgan ishlarni samaradorligini yanada oshirish maqsadida joriy yilning 2-yarim yilligi mobaynida quyidagi profilaktik chora-tadbirlarni kuchaytirish to'g'risida vazifalar belgilandi.

Jumladan,

Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifiat bo'limi bilan hamkorlikda

“Korrupsiyasiz soha” loyihasi doirasida yoshlarda korrupsiyaga nisbatan toqatsizlik munosabatini shakllantirish uchun talaba-yoshlar o'rtasida targ'ibot-tashviqot tadbirlarini o'tkazilishini kuchaytirish.

Bunda, 2025/2026-o'quv yili jarayoniga dars mashg'ulotlariga xalaqit qilmagan holda aniq muddatlari belgilangan reja-grafik ishlab chiqilib, o'tkaziladigan targ'ibot-tashviqot tadbirlariga huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlarini va jamoatchilik vakillarini taklif etishga asosiy e'tiborni qaratish.

Professor-o'qituvchilar hamda ishchi-xodimlar o'rtasida xizmat intizomini mustahkamlash va odob-axloq qoidalariga rioya etilishini ta'minlash maqsadida “Odob-axloq komissiyasi”ning imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda tizimli ishlarni tashkil etish.

Bunda, xizmat intizomi hamda odob-axloq qoidalariga buzgan professor-o'qituvchi va ishchi-xodimlarni xatti-harakatlarini “Odob-axloq komissiyasi”da muhokama qilish orqali ta'sirchan profilaktik-ogohlantiruv tadbirlarini kuchaytirish amaliyotini muntazam ravishda amalga oshirish.

Talabalarda korrupsiyaga nisbatan toqatsizlik munosabatini shakllantirish hamda vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlarini samarali tashkil etish maqsadida 2025/2026-o'quv yilining har semestrida kamida bir marotaba “Eng yaxshi insholar”, “Eng yaxshi rasmlar” va “Bilimlilar bellashuvi” kabi tanlovlarini o'tkazish.

O'quv-uslubiy boshqarmasi bilan hamkorlikda

2025/2026-o'quv yili mobaynida kafedralar kesimida aniq muddatli reja-jadval ishlab chiqish, shu asnoda professor-o'qituvchilar o'rtasida uchrashuvlar tashkil etish va har qanday sodir etilgan jinoyat va huquqbuzarliklar uchun jazo muqarrarligi ta'minlanganligini tushuntirish bilan bog'liq bo'lgan profilaktik tadbirlarni amalga oshirish.

Fakultetlardagi talabalar bilimni baholashdagi norozilik bo'yicha appelyatsiya komissiyalarining ish faoliyatini joriy yilning 25-iyul kuniga qadar

o'rganib chiqilsin hamda hujjatlarni rasmiylashtirish jarayonida yo'l qo'yilgan kamchiliklarni bartaraf qilish choralari ko'rish.

Institutning auditorlik xizmati bilan hamkorlikda

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Budget mablag'laridan foydalanish ustidan moliyaviy nazoratni kuchaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2024-yil 10-iyuldagi PF-100-sonli Farmonida belgilangan vazifalardan kelib chiqib,

- **Muntazam ravishda**, Davlat xaridlari ishtirokchilari tomonidan taqdim etilgan hujjatlar haqqoniyligini maxsus axborot portali orqali o'rganib borish.

Bunda, soliq qo'mitasining ma'lumotlar bazasidan foydalangan holda real vaqt rejimida davlat buyurtmachilari, shu jumldan korporativ buyurtmachilar tomonidan tuzilgan shartnomalar ijrosi bo'yicha bajarilgan ishlar to'g'risidagi dalolatnomalar va hisob-fakturalarni maxsus axborot portali orqali o'rganib borish hamda davlat xaridlarida ishtirok etish uchun taqdim etilgan (tender, eng yaxshi taklif) ma'lumotlarining haqqoniyligini nazorat qilishga alohida e'tibor qaratish.

- **Doimiy ravishda** tender bo'yicha xarid qilish hujjatlari va texnik topshiriqlarni ekspertiza qilish bo'yicha Korrupsiyaga qarshi kurashish ichki nazorat bo'limi bilan ma'lumot almashinuvini tashkil etib borilishi yo'lga qo'yish.

Bunda asosiy e'tibor, tender savdolari g'oliblari bilan shartnomalarni tuzishda tender bo'yicha xarid qilish hujjatlari va texnik topshiriqlarni Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi "Loyihalar va import kontraktlarini kompleks ekspertiza qilish markazi" davlat unitar korxonasidan ekspertizadan o'tkazilishini nazorat qilishga qaratish.

Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi bilan hamkorlikda

Institutdagi mavjud korrupsiyaviy yo'nalishdagi xavf-xatarlarni aniqlash hamda iste'molchilarning ta'lim xizmatlari sifatidan qanoatlanligini baholab borish maqsadlarida 2025/2026-o'quv yili davomida talabalar va ota-onalari o'rtasida ochiq yoki anonim tarzda so'rovnomalar o'tkazish ishlarini tashkil etish.

So'rovnoma tadbiri natijasi bo'yicha mavjud korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish hamda ta'lim sifatini yanada yaxshilash bo'yicha tegishli zarur chora-tadbirlar belgilab borish.

Xodimlar bo'limi bilan hamkorlikda

Ishga qabul qilinayotgan yoki boshqa ishga o'tkazilayotgan xodimlar tomonidan to'ldirilayotgan "Ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi deklaratsiya"larda oshkor etilgan ma'lumotlarni atroflicha chuqur o'rganib chiqish.

Nomzod ishga qabul qilinayotganda yoki xodim boshqa lavozimga o'tkazilayotganda mavjud yoki ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi holatlari yuzaga kelishiga yo'l qo'ymaslik bo'yicha zarur choralar ko'rib borilish kabi vaziflarni amalga oshirish belgilandi.

**Коррупцияга қарши ички
назорат тузилмаси**